

NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2022- YIL
YANVAR-NOYABR

Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
hajmi – 8 326,8 mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida kichik
biznesning ulushi – 58,4 %

XIZMATLAR SOHASI

Xizmatlar sohasidagi korxona
va tashkilotlarning ulushi – 64,8 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi – 7 991,2 ming so'm

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xizmatlar sohasi salmoqli o'ringa ega. O'zbekistonda eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri, uchinchi darajali sektor – xizmatlar sohasi hisoblanadi.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 580,3 mlrd. so'mga oshib, **8 326,8** mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga (**117,4 %**) nisbatan o'sish sur'ati **113,9 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmatlarning ulushi **31,6 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**21,1 %**), transport xizmatlari (**16,4 %**), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**6,2 %**), shuningdek, me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**4,5 %**)da ham qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,5 %** ga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-noyabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumi hajmi o'sishining asosiy omili yashash va ovqatlanish xizmatlari **63,6 %** ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **20,6 %** ga, sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar – **19,6 %** ga, moliyaviy xizmatlar – **17,4 %** ga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar – **16,2 %** ga, ijara xizmatlari – **14,8 %** ga, shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar – **14,2 %** ga to'g'ri keldi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o'sish sur'ati yuqori bo'lgan xizmat turlari, % da (2022- yil yanvar-noyabr)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-noyabr)	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, % da
	2021- y. ¹⁾	2022- y.	
Xizmatlar – jami	6 746,5	8 326,8	113,9
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	261,9	317,1	120,6
Moliyaviy xizmatlar	1 464,8	1 755,6	117,4
Transport xizmatlari	1 208,7	1 366,4	106,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>		1 002,5	1 163,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	264,1	519,0	163,6
Savdo xizmatlari	2 093,8	2 631,8	111,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	135,1	167,1	116,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	241,0	291,8	114,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	90,2	122,2	119,6
Ijara xizmatlari	106,3	129,9	114,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	106,6	133,5	110,9
Shaxsiy xizmatlar	164,8	222,4	110,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	357,7	371,8	97,6
Boshqa xizmatlar	251,5	298,2	111,1


¹⁾ Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Savdo xizmatlari
(yanvar-noyabr)



2022-yilning
yanvar-noyabr
oylarida
ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining
umumi hajmida
savdo xizmatlari
ulushi, % da

O'sish sur'ati,
% da




Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm



Savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-noyabr)

1. Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar.
2. Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosiga, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda.
3. Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari).




**Hududlar kesimida
savdo xizmatlari
(2022- yil yanvar-noyabr)**

**O'sish sur'ati,
% da**

Navoiy sh.	107,3
Zarafshon sh.	123,5
G'ozg'on sh.	114,8
Karmana t.	111,1
Konimex t.	113,9
Qiziltepa t.	113,8
Navbahor t.	111,2
Nurota t.	106,9
Tomdi t.	106,5
Uchquduq t.	109,8
Xatirchi t.	111,7

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.


**Hududlar kesimida savdo xizmatlari hajmi, mlrd. so'm
(2022- yil yanvar-noyabr)**




Transport xizmatlari (yanvar-noyabr)

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlari hajmi **1 366,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan bu xizmat turining o‘sishi **6,7 %** ni tashkil etdi.


*O’sish sur’ati,
% da*



*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so‘m*



*Turlari bo‘yicha transport xizmatlarining
tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-noyabr)*



- Quruqlikdagi transport va quvurlar orqali yetkazib berish bo‘yicha xizmatlar
- Omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari
- Pochta va kuryerlik xizmatlari

Transport xizmatlari
(2022- yil yanvar-noyabr)

Hajm,
mlrd. so‘m

O‘sish
sur’ati, %

Navoiy viloyati	1 366,4	106,7
Navoiy sh.	263,4	105,1
Zarafshon sh.	165,8	116,1
G‘ozg‘on sh.	4,1	117,3
Karmana t.	269,1	102,6
Konimex t.	53,2	107,7
Qiziltepa t.	168,9	106,8
Navbahor t.	109,1	108,6
Nurota t.	84,3	112,0
Tomdi t.	31,1	110,6
Uchquduq t.	57,0	108,0
Xatirchi t.	160,4	106,0

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida G‘ozg‘on (17,3 %) va Zarafshon shaharlarida (16,1 %), shuningdek, Nurota tumanida (12,0 %) transport xizmatlari bo‘yicha yuqori o‘sish qayd etildi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 163,2 mlrd. so'mga** yetdi.


2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar **8,9 %** ga o'sdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi **14,0 %** ni tashkil etdi.

*Tashish turlari bo'yicha
avtomobil transporti xizmatlarining
tarkibi, % da*




Avtomobil transporti
xizmatlari
(yanvar-noyabr)

*O'sish sur'ati,
% da*




*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



Moliyaviy xizmatlar (yanvar-noyabr)

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **290,9** mlrd. so‘mga oshdi va **1 755,6** mlrd. so‘mga yetdi. Moliyaviy xizmatlar bozor xizmatlarining umumiy hajmida **21,1** % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o‘sish sur’ati **117,4** % ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-noyabr)




- Sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar**
- Sug‘urta bo‘yicha xizmatlar**
- Yordamchi moliyaviy faoliyat**

<i>Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-noyabr)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Navoiy viloyati	117,4
Navoiy sh.	111,8
Zarafshon sh.	128,1
G'ozg'on sh.	118,0
<i>tumanlar</i>	
Karmana t	127,9
Konimex t.	119,2
Qiziltepa t.	127,5
Navbahor t.	121,0
Nurota t.	129,4
Tomdi t.	112,1
Uchquduq t.	129,9
Xatirchi t.	125,2

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamin kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.


Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi, mlrd. so'm (2022- yil yanvar-noyabr)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-noyabr)

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **317,1** mlrd. so‘m darajasida qayd etildi va 2021- yilning yanvar-noyabriga nisbatan o‘sish sur’ati **120,6 %** ni tashkil etdi.


*O’sish sur’ati,
% da*



*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so‘m*



*Aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-noyabr)*



- Axborot xizmatlari
- Boshqa xizmatlar
- Kompyuterda dasturlashtirish bo‘yicha xizmatlar
- Telekommunikatsiya xizmatlari

Aloqa va axborotlashtirish
xizmatlari
(2022- yil yanvar-noyabr)


Hajm,
mlrd. so'm

O'sish
sur'ati, %



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng katta hajmi Navoiy shahrida qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur hududda ushbu turdag'i xizmatlar hajmi **15,8** mlrd. so'mga oshib, **94,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-noyabr)




Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2022- yil yanvar-noyabr)

Hajm,
mlrd. so'm


*O'sish sur'ati,
% da*

	Hajm, mlrd. so'm	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Navoiy viloyati	291,8	114,2
Navoiy sh.	206,6	112,6
Zarafshon sh.	10,8	117,4
G'ozg'on sh.	0,04	117,1
<i>tumanlar</i>		
Karmana t	18,6	118,3
Konimex t.	5,2	113,5
Qiziltepa t.	12,3	116,9
Navbahor t.	8,1	116,4
Nurota t.	7,0	114,6
Tomdi t.	1,6	109,8
Uchquduq t.	7,7	117,3
Xatirchi t.	13,9	125,5

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so' m (2022- yil yanvar-noyabr)




Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida Navoiy shahri katta qismni – **65,0 %** ni egallaydi. 2022- yil yanvar-noyabr oylarida Navoiy shahri (**24,8 %**), Navbahor tumani (**14,3 %**), Qiziltepa tumani (**13,7 %**) va Zarafshon shahrida (**13,0 %**) sog'liqni saqlash xizmatlarining yuqori o'sishi qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-noyabr)


O'sish sur'ati,
% da



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da (2022- yil yanvar-noyabr)



**Hududlar kesimida ko'rsatilgan
xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari
(2022- yil yanvar-noyabr)**

	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	8 326,8	113,9
Navoiy sh.	3 215,6	114,5
Zarafshon sh.	1 024,1	112,7
G'ozg'on sh.	22,4	115,0
<i>tumanlar:</i>		
Karmana t	1 204,6	113,3
Konimex t.	195,9	113,1
Qiziltepa t.	743,1	114,4
Navbahor t.	488,2	113,9
Nurota t.	359,4	113,0
Tomdi t.	108,6	111,6
Uchquduq t.	281,4	114,8
Xatirchi t.	683,5	114,0


¹⁾ *hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-noyabr)

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7 991,2 ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etgan.




Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm (2022- yil yanvar-noyabr)



Aholi soni aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning rivojlanishi ko'rsatkichiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Masalan, aholi soni nisbatan kam bo'lgan G'ozg'on va Tomdi tumanlarida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar aholi zinch joylashgan Xatirchi va Qiziltepa tumanlariga qaraganda yaxshiroq ko'rindi.

Yuqori o'sish sur'atlari G'ozg'on shahrida (**13,1 %**) va Uchquduq tumanida (**12,5 %**), shuningdek, Qiziltepa (**12,5 %**) va Navbahor (**11,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga xizmatlarning o'sish sur'ati, % da (2022- yil yanvar-noyabr)



2022- yilning 1- dekabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

16 203 birlik

1 375 birlik

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o‘sishi

2021- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati

109,3 %

2022- yilning 1- dekabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

64,8

15,9

12,2

7,1


■ Xizmatlar

■ Sanoat

■ Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi


■ Qurilish

2022- yilning 1- dekabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumot
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari
(yanvar-noyabr)

O’sish sur’atlari,
 % da



Xizmatlar hajmi,
 mldr. so‘m



Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi
 Tel.: 79-223-63-31